



## BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK BOSHQARUVNING MOHIYATI

**Salayeva Muborak Saburovna**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası professori*

**Jo'rayeva Nargiza Xusan qizi**

*Nizomiy nomidagi O'MPUning Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi I-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik boshqaruvning nazariy asoslari, uning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada boshlang'ich sinflarda pedagogik boshqaruvning samarali modellaridan foydalanish, o'qituvchi-ota-ona hamkorligi, o'quvchilar faoliyatini differensial tashkil etish masalalari ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, pedagogik boshqaruv, ta'lim jarayoni, o'qituvchi faoliyati, monitoring, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, metodik yondashuv.

Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Mazkur bosqichda pedagogik boshqaruv jarayoni o'qituvchining o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishi, o'quvchilarning psixologik va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim samaradorligini ta'minlash faoliyati bilan belgilanadi.

Pedagogik boshqaruvning mohiyati — o'qituvchi tomonidan ta'limning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda o'quv faoliyatini rejalashtirish, motivatsiya yaratish, o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, natijalarni nazorat qilish va refleksiya jarayonlarini boshqarishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim umumiy ta'lim tizimining eng muhim bosqichi bo'lib, unda o'quvchilarning bilish jarayoni, tafakkuri, ijtimoiylashuvi, emotsional-irodaviy sifatleri shakllanadi. Ushbu davrdagi o'quv jarayonini samarali tashkil etish, avvalo, o'qituvchining pedagogik boshqaruv mahoratiga bog'liq. Pedagogik boshqaruv — bu ta'lim jarayonini tizimli rejalashtirish, izchil tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va qayta rejalashtirishdan iborat bo'lgan boshqaruv faoliyatidir. Boshlang'ich sinflarda boshqaruv yanada murakkab bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va individual rivojlanish dinamikasi o'qituvchidan yuqori darajada kompetensiyani talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda boshqaruv faoliyati o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda, izchil, tizimli va interfaol usullar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki facilitator, yo'naltiruvchi, motivator va



diagnost sifatida namoyon bo'ladi. Shu orqali pedagogik boshqaruv o'quvchi faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limdagi samarali boshqaruvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: o'qituvchining kasbiy mahorati, to'g'ri tanlangan metod va texnologiyalardan foydalanishi, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni boshqarishi, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda differensial ta'limni yo'lga qo'yishi hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishi. Ushbu omillar uyg'unlashgan taqdirda boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi, o'quvchilarning o'zlashtirishi va ijtimoiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Pedagogik boshqaruvning mohiyati shundaki, u boshlang'ich ta'lim jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchi jarayonning bosh koordinatori sifatida o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, tajriba almashish imkoniyatini yaratadi, bilim olish uchun qulay psixologik muhit shakllantiradi. Shu bois pedagogik boshqaruvning ilmiy asoslarini chuqur o'rganish, amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich ta'lim sifatining oshishiga olib keladi.

Pedagogik boshqaruv ta'lim jarayonining ichki mexanizmlarini tartibga soluvchi, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. **Tizimlilik tamoyili** — o'quv jarayonining barcha elementlari o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lishi.

2. **Shaxsga yo'naltirilganlik** — boshqaruv jarayoni o'quvchining individual qobiliyati, rivojlanish sur'ati va psixologik ehtiyojlarini inobatga olgan holda olib borilishi.

3. **Uzluksizlik va izchillik** — ta'lim jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilishi.

4. **Demokratik va hamkorlikka yo'naltirilgan boshqaruv** — o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasida o'zaro faol aloqalar tashkil etilishi.

5. **Refleksiv yondashuv** — o'qituvchi o'z faoliyatini va o'quvchilarning natijalarini muntazam tahlil qiladi, xatolarni bartaraf etadi.

Mazkur tamoyillar pedagogik boshqaruvning nazariy poydevorini tashkil etadi va boshlang'ich ta'limning sifatini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinflarda pedagogik boshqaruv ko'p qirrali jarayon bo'lib, o'qituvchidan quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borishni talab qiladi:

1. **Rejalashtirish.** O'qituvchi dars jarayonini didaktik prinsiplarga asoslanib rejalashtiradi, yil, chorak, hafta va har bir dars uchun maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Rejalashtirishda o'quvchilarning individual o'zlashtirish ko'rsatkichlari inobatga olinadi.

2. **Tashkillashtirish.** O'quv jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish, sinfda sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchilarni guruhlariga bo'lib ishlatish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir.



**3. Motivatsiyani boshqarish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga qiziqish doimiy rag'batlantirish va ijobiy munosabat orqali shakllanadi. O'qituvchining rag'batlantiruvchi so'zlari, muvaffaqiyatni qadrlash, kichik g'alabalarni ta'kidlash motivatsiya boshqaruvining asosi bo'ladi.

**4. Monitoring va baholash.** Pedagogik monitoring o'quvchilarning bilim darajasini muntazam aniqlash, o'sishni kuzatish, ta'lim natijalarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy boshqaruvda baholashning formatif va summativ turlari qo'llanadi.

**5. Refleksiya va tahlil.** O'qituvchi dars jarayonini doimiy tahlil qilib boradi, natijalardan kelib chiqib, o'qitish strategiyalarini qayta ko'rib chiqadi. Bu jarayon boshqaruvning takomillashtirilganligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida boshqaruvning samaradorligi ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq. Asosiy omillar quyidagilardir:

1) **O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi.** Pedagogik, psixologik, metodik bilimlarning yetarli bo'lishi boshqaruv samaradorligini oshiradi. O'qituvchi yosh xususiyatlarini, o'quvchilarning individual farqlarini chuqur o'rganishi zarur.

2) **Ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishi.** Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, kichik guruhlar, loyiha texnologiyasi) o'quvchilarni faollashtiradi va boshqaruv jarayonini yengillashtiradi.

3) **Oilaviy va ijtimoiy muhit.** Pedagogik boshqaruvning muvaffaqiyatida ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim. Ota-onalarning darsdan tashqari faoliyatga jalb etilishi o'quvchining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4) **Psixologik muhit.** Sinfda samimiy, qo'llab-quvvatlovchi muhit bo'lsa, o'quvchilar o'zini erkin his qiladi va dars jarayonida faol ishtirok etadi.

5) **Innovatsion texnologiyalar.** Raqamli platformalar, elektron darsliklar, ta'limiy o'yinlar boshqaruv jarayonini soddalashtiradi, nazoratni osonlashtiradi, natijalarni aniq kuzatish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, boshlang'ich ta'lim jarayonidagi pedagogik boshqaruv — o'qituvchining o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan murakkab, tizimli faoliyatidir. Uning mohiyati o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida boshqarishdan iborat. Ta'lim jarayonida to'g'ri rejalashtirish, metodlarni oqilona tanlash, monitoringni to'g'ri yo'lga qo'yish va ota-onalar bilan hamkorlik pedagogik boshqaruv samaradorligini oshiradi. Natijada o'quvchilarning o'quv faolligi, ijodkorligi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi va ta'lim jarayoni yuqori samaradorlikka erishadi.





## Adabiyotlar

1. Салаева, М., & Косимова, Ш. (2025). Роль коммуникативной компетенции в профессиональной деятельности учителя начальных классов / *B International Conference On Science & Technology* (Т. 1, Выпуск 2, С. 144-153). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17824692>
2. Salayeva, M., & Jo'rayeva, N. (2025). Innovatsion ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqaruv faoliyati / *B Theoretical Aspects In The Formation Of Pedagogical Sciences* (Т. 4, Выпуск 27, С. 143-155). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17826195>
3. Salayeva, M., & Shodmonova, N. (2025). Boshlang'ich sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam berishdagi muammolar / *B Development And Innovations In Science* (Т. 4, Выпуск 13, С. 15-24). <https://doi.org/10.5281/zenodo.17855816>
4. Salayeva M.S. Professionalizm faoliyat sohasidagi rivojlanish va muvaffaqiyatning ajralmas qismi sifatida // *NamDU ilmiy axborotnomasi* – 2024-yil 2-son. – B. 606-612.
5. Salayeva M.S. Pedagog professionalizmini rivojlantirishning akmeologik determinantlari // *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, Vol. 10 (2024). <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.930>
6. Salayeva M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs mobilligini shakllantirish Monografiya – T.: 2024. - 128 b.
7. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / “Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.
8. Salayeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
9. Salayeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2). ISSN 2181-3558 Volume 1, Issue 3 AUGUST 2022. -Pp. 83-91. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>
10. Salayeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / “Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari.



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.  
Elektron to'plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.

11. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research IN Uzbekistan. Volume 2, ISSUE 1, 2024. January. ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. – B. 16-25.

12. Салаева М.С. Педагогининг касбий компетентлиги ва профессионализмига психологик ёндашув / “Психология фани ва ёшларнинг ривожланиши” мавзусидаги Халқаро онлайн конференция / “*International Psychology Summit*” (Халқаро психология САММИТИ). ЎзМУ. 2020 йил 27-28 июль. – Б.205- 211.

13. Салаева М.С. Педагог профессионализмининг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / Материалы международной научной конференции “Педагогические и психолингвистические особенности развития, формирования и становления личности врача”. – Самарканд. Самаркандский государственный медицинский институт. (СамГМИ) 5 мая 2021 года. Электронный сборник. – С.178-180.

14. Салаева М.С. Педагогининг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.

15. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогининг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021). - С.567-570.

16. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - С.54-60. [www.academscience.uz](http://www.academscience.uz)

17. Салаева М.С. Специфика профессиональной деятельности учителя начальных классов / "Мактабгача таълимда оила, мактаб ва ОТМ ҳамкорлиги: муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Республика илмий-амали онлайн конференция / Муқимий номидаги Қўқон давлат педагогика институти. Қўқон - 2020. Электрон тўплам. - Б.169-172.

18. Салаева М.С., Юлдашева М.Р. Формирование профессиональной мобильности студентов начального образования / “Yangi O'zbekistonda



boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. – T.: TDPU nashriyoti, 2024. II qism.- B.87-93.

19. Salaeva M.S. Personal and professional self-development of a teacher to achieve a professional level // *Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS)* ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P. 234-237.

20. Salaeva M.S. Formation of teacher professionalism as an integration psychological event in the context of globalization of education // *Hindiston. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)* eISSN: 2456-6470 Impakt faktor: 6.005. Special Issue – IDMR2021. April 2021. - P.109-111. Available Online @ <https://www.ijtsrd.com>

21. Salaeva M.S. Formation of professional mobility of educators of pre-school education organizations / *Prof. Dr. Ayla Oktay anısına düzenlenen 8. Uluslararası Okul Öncesi Eğitim Kongresi*. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Eğitim Fakültesi. 26-28 Ekim 2023. – Pp.225-226.

22. Salaeva M.S. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.

23. Salaeva M.S., Berdibekova F.A., & Tulkuniy M.T. Model For Developing Professionalism In Future Primary School Teachers // *The Bioscan*, 2025. 20(4), 645–657. <https://thebioscan.com/index.php/pub/article/view/4487>

24. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // *Specialusis ugdymas / Special education*. 2022 1(43). Pp. 10571-10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>

25. Salayeva M.S., Ergasheva G.M., Magdiyeva M.E., Shayunusova F.S. Scientific Aspects of Pedagogical Professionalism // *Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology*. ISSN: 1001-4055 Vol. 44. №. 6 (2023). – Pp.2264-2270. <https://propulsiontechjournal.com/index.php/journal/article/view/3673/25>